

## **OLIY TA'LIM XODIMLARINI MALAKASINI OSHIRISHNING AHAMIYATI**

*Oriental Universiteti Ta'lismeneymenti yo'nalishi magistranti  
X. Mamadaliyeva*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada mustaqillik yillarda O'zbekistonda ta'litmizimi, jumladan, oliy ta'litmizimida faoliyat yuritayotgan professor-o'qituvchilarni hamda boshqa xodimlarni rag'batlantirish tizimini amalga tadbiq etishda ularning malakasini oshirishning ahamiyati yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** oliy ta'lim, pedagog, farmon, rag'batlantirish, malaka oshirish, mutaxassis.

**Аннотация:** В данной статье освещается важность повышения квалификации профессорско-преподавательского состава и других сотрудников, работающих в системе высшего образования, а также внедрение системы их стимулирования в годы независимости Узбекистана.

**Ключевые слова:** высшее образование, педагог, указ, стимулирование, повышение квалификации, специалист.

**Annotation:** This article highlights the importance of improving the qualifications of professors, teachers, and other staff working in the education system, particularly in higher education, as well as the implementation of a system for their motivation during the years of independence in Uzbekistan.

**Keywords:** higher education, educator, decree, motivation, professional development, specialist.

Oliy ta'lim rahbarlari va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish zamonaviy ta'litmizimida juda muhim ahamiyatga ega. Bu jarayon ta'lim sohasidagi yangi texnologiyalar, metodik yondashuvlar va bilimlarni o'zlashtirish orqali rahbarlar va o'qituvchilarning professional

ko'nikmalarini yangilashga qaratilgan. zaruriyatning asosiy sabablari sifatida bir nechta omillarni keltirishimiz mumkin.

1. Zamonaviy ta'lim talablariga moslashish: Dunyo tez sur'atlar bilan rivojlanmoqda, shu bilan birga ta'lim sohasida ham yangi texnologiyalar, innovatsion usullar va bilimlar paydo bo'lmoxda. Pedagoglar va rahbarlar o'z bilimlarini yangilab, zamonaviy ta'lim standartlariga moslashmasa, ta'lim sifatining pasayishi mumkin.

2. Talablar va ehtiyojlarning o'zgarishi: Talabalar va jamiyatning ta'limga bo'lgan talablari va ehtiyojlari doimiy ravishda o'zgarib boradi. Pedagoglar va rahbarlar bu o'zgarishlarni hisobga olib, o'zlarining metodik yondashuvlarini yangilashlari kerak.

3. Raqobatbardoshlikni oshirish: Oliy ta'lim muassasalari o'rtasidagi raqobat kuchaymoqda. Malakali va yangicha fikrlash qobiliyatiga ega bo'lgan rahbarlar va pedagoglar muassasaning obro'sini oshirish va talabalarga sifatli ta'lim berishda muhim rol o'ynaydi.

4. Innovatsiyalarni joriy etish: Ta'lim sohasida yangi texnologiyalar va innovatsion yondashuvlarni qo'llash talabning ortishi bilan birga pedagoglarning ham ushbu sohalarda malakasini oshirishni talab qiladi. Masalan, masofaviy ta'lim, sun'iy intellekt va boshqa zamonaviy vositalardan samarali foydalanish uchun qayta tayyorlash zarur.

5. Xalqaro standartlarga erishish: Oliy ta'lim muassasalari xalqaro miqyosda tan olinishi va raqobatbardoshlikni saqlashi uchun xalqaro ta'lim standartlariga mos kelishi kerak. Buning uchun rahbarlar va pedagoglar xalqaro tajriba va bilimlar bilan tanishib, ularni o'z faoliyatida qo'llashlari lozim.

6. Pedagogik mahoratni oshirish: Pedagoglar nafaqat bilimdor bo'lishi, balki o'z bilimlarini samarali tarzda yetkazish qobiliyatiga ham ega bo'lishi kerak. Qayta tayyorlash jarayonida ularning didaktik, psixologik va kommunikativ ko'nikmalari takomillashtiriladi.

7. Ijtimoiy mas'uliyatni oshirish: Oliy ta'lim rahbarlari va pedagoglari nafaqat bilim beruvchilar, balki jamiyatning rivojlanishiga hissa qo'shuvchi shaxslar sifatida ham mas'uliyatni his qilishlari kerak. Qayta tayyorlash orqali ularning ijtimoiy mas'uliyati va ma'naviy qadriyatlari mustahkamlanadi. Shunday ekan bu jarayonni huquqiy asosini tahlil qilamiz.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida ta'limning O'RQ-637-sonli "Ta'lim to'g'risida"gi qonunda belgilab qo'yilgan 7 turi mavjud [1]. Ta'lim turlari quyidagilardan iborat: maktabgacha ta'lim va tarbiya; umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim; professional ta'lim; oliy ta'lim; oliy ta'limdan keyingi ta'lim; kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish; mакtabdan tashqari ta'lim.

So'nggi yillarda oliy ta'lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarining kasbiy bilim, malaka va ko'nikmalarini rivojlantirishga keng imkoniyatlar yaratilmoqda. Qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslari o'quv jarayoniga o'qitishning zamonaviy shakl va texnologiyalari, jumladan masofaviy ta'lim, vebinar texnologiyalari, avtomatlashgan monitoring, elektron axborot tizimlari joriy etilmoqda.

Shu bilan birga, rahbar va pedagog kadrlar malakasini oshirishning amaldagi tartibi samarasi past bo'lganligi, ko'p resurs sarflashni talab etayotgani hamda zamonaviy talablarga javob bermayotganligi, ushbu jarayonga innovatsion yondashuvlarni joriy etishni hamda kadrlarning kasbiy kompetentligini doimiy rivojlantirish mexanizmlarini qo'llashni talab etmoqda.

Kadrlar malakasini oshirish kasbiy bilim, malaka va ko'nikmalarning chuqurlashtirilishi hamda yangilab borilishini ta'minlaydi, kadrlarning toifasi, darajasi, razryadi va lavozimi oshishiga xizmat qiladi. Kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish ta'lim tizimining muhim bug'unlaridan biri bo'lib qonun hujjatlari orqali, belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

"Oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi

Prezidentining 2019-yil 27-avgustdagи PF-5789-sonli farmoni [2] 9 ta banddan iborat.

Rahbar va pedagog kadrlarning uzluksiz malakasini oshirish tizimining asosiy vazifalari etib belgilangan:

Rahbar va pedagog kadrlarning kasbiy bilimi, ko'nikmalari va mahoratini uzluksiz yangilab borish mexanizmlarini joriy etish, zamonaviy talablarga muvofiq oliy ta'lim sifatini ta'minlash uchun zarur darajada kasbiy tayyorgarlikni oshirish;

Malaka oshirishning bevosita va kasbiy faoliyatga aloqador bilvosita shakllarini variativ va bir-birini to'ldirish tamoyillari asosida amaliyatga joriy etishini ta'minlash va monitoring olib borish;

Rahbar va pedagog kadrlarning ilmiy-pedagogik salohiyatidan kelib chiqib ularning kasbiy ehtiyojlarni qanoatlantirishga yo'naltirilgan uzluksiz malaka oshirishning shakllarini mustaqil tanlash va o'zlashtirish imkoniyatini yaratish;

Rahbar va pedagog kadrlarning kasbiy mahoratini muntazam oshirish asosida ularning ilmiy va amaliy tadqiqotlar, texnologik taraqqiyot hamda o'qitilayotgan fanlar bo'yicha innovatsiyalar, shuningdek o'quv jarayonini tashkil etishning zamonaviy uslublari sohalaridagi ko'nikmalarini rivojlantirish;

Yuqori samarali zamonaviy ta'lim va innovatsion texnologiyalar, ilg'or xorijiy tajribani keng joriy etgan holda rahbar va pedagog kadrlarning malakasini oshirish bo'yicha malaka talablari, o'quv rejalarini va dasturlarini doimiy yangilab borish, ularning faoliyatini zarur darajada tashkil etish va samaradorligini ta'minlash;

Rahbar va pedagog kadrlarda internet jahon axborot tarmog'i, multimedia tizimlari va masofadan o'qitish usullaridan foydalangan holda, ilg'or pedagogika, axborot-kommunikatsiya va innovatsion texnologiyalarni egallash va ularni o'quv jarayoniga faol tatbiq etish ko'nikmalarini rivojlantirish;

Rahbar va pedagog kadrlarning chet tilini amaliy o'zlashtirish darajasini oshirish, o'z kasbiy mahoratini, pedagogik va ilmiy faoliyati samaradorligini muttasil oshirib borish imkoniyatlarini yaratish.

Farmonning 3 bandida Rahbar va pedagog kadrlarning uzlusiz malaka oshirish shakllari sifatida quyidagilar keltirilgan: - mutaxassislik bo'yicha mustaqil malaka oshirish; - muqobil malaka oshirish; - ta'lim dasturlari asosida ixtisoslashtirilgan qayta tayyorlash va malaka oshirish muassasalarida bevosita o'qish shakllarini o'z ichiga oladi.

Bunda, rahbar va pedagog kadrlarga ularning kasbiy, o'quv-metodik va ilmiy-pedagogik faoliyati natijalaridan kelib chiqib, muqobil malaka oshirish yoki ta'lim dasturlari asosida o'qish shakllarini tanlash imkoniyati beriladi.

Farmonning 4 bandida mas'ul tashkilotlar tomonidan 2019-yil 1-sentabrdan boshlab:

rahbar va pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslarida ishdan ajragan holda to'g'ridan-to'g'ri (bevosita) o'qish umumiy davomiyligini 144 soat etib belgilash;

rahbar va pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish markazlarida professor-o'qituvchilarning sonidan kelib chiqib belgilanadigan, kamida 3 ta shtat birligidan iborat ta'lim texnologiyalari kafedralarini tashkil etish;

rahbar va pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish markazlarida samarali dars berayotgan professor-o'qituvchilar, tajribali amaliyotchi mutaxassislar faoliyati tahlilidan kelib chiqib, ularga bazaviy lavozim maoshining 30 foizigacha oylik ustamalar belgilash, shuningdek mashg'ulotlar o'tkazish uchun soatbay ish haqi to'lash shartlari bilan jalb etilgan malakali professor-o'qituvchilar, tajribali amaliyotchi mutaxassislarni soatbay haq to'lash miqdorining 20 foizigacha ko'paytirilgan holda moddiy rag'batlantirish;

pensiya yoshidagi, uch yosha to'lman farzandi bor ayollar hamda nogironligi bo'lgan rahbar va pedagog kadrlarning qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslarida o'qishini masofaviy shaklda tashkil etish;

rahbar va pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish markazlarining qo'shimcha ta'lim xizmatlari ko'rsatish asosida ishlab topgan budgetdan tashqari mablag'lari hisobidan ushbu markazlar xodimlari lavozim maoshlariga yagona tarif setkasi bo'yicha mehnatga haq to'lashning tasdiqlangan razryadlariga ko'ra 200 foizgacha ustama haq to'lash;

oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish mintaqaviy va tarmoq markazlari tuzilmasiga xalqaro hamkorlik bo'yicha mutaxassis lavozimini kiritish to'g'risidagi takliflariga rozilik berilsin.

Farmonning 5-7 bandlarida mutasaddi tashkilotlar bir oy muddatda rahbar va pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish markazlari xodimlarining mehnatiga haq to'lash miqdori va shartlarini, ularni moliyalashtirish tizimi to'g'risida belgilab qo'yilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to'g'risida" 2019-yil 27-avgustdagи PF-5789-son Farmoni ijrosini ta'minlash hamda oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining kasbiy bilimi, ko'nikmalari va mahoratini uzluksiz yangilab borish mexanizmlarini joriy etish, zamonaviy talablarga muvofiq oliy ta'lim sifatini ta'minlash uchun darajada kasbiy tayyorgarlikni oshirish, qayta tayyorlash va malaka oshirishning bevosita hamda kasbiy faoliyatga aloqador bilvosita shakllarini variativ va bir birini to'ldirish tamoyillari asosida amaliyatga joriy etishni ta'minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 23-sentabrda "Oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 797-sonli Qarori [3] e'lon qilinadi. U oltita banddan iborat bo'lib birinchi bandida, oliy ta'lim muassasalari

rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish markazlarida Ta'lim texnologiyalari kafedrasi tashkil etilishi, ikki oy muddatda tuzilmaga xalqaro hamkorlik bo'yicha mutaxassis jalb etish; ikkinchi bandida esa oliv ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish jarayonlarini tashkil etish tartibi to'g'risida nizom, tuzilmaning mintaqaviy va tarmoq markazlarini tashkil etish, tuzilma muassasalarida samarali dars berayotgan professor-o'qituvchilar, mutaxassislarni rag'batlantirish tartibi belgilangan.

Qarorning uchinchi bandida tuzilma bo'yicha tayanch oliv ta'lim muassasalari bo'lgan vazirlik va idoralar 2019-yil 1-oktabrdan boshlab:

rahbar va pedagog kadrlarning o'quv-metodik va ilmiy-pedagogik faoliyati natijalarini inobatga oladigan, ularga muntazam ravishda kasbiy o'zini o'zi rivojlantirib borish imkoniyatini beruvchi uzluksiz malaka oshirish tizimini amaliyotga joriy etish bo'yicha tashkiliy-metodik tayyorgarlikni amalga oshirish;

o'quv rejalarini va dasturlarini mazmunini takomillashtirish, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda pedagog kadrlar malakasini oshirishning innovatsion shakllari va usullarini joriy etish;

mintaqaviy va tarmoq markazlari tinglovchilarining xalqaro ilmiy ma'lumotlar bazasidan keng foydalanishlari uchun zarur sharoitlarni yaratish;

mintaqaviy va tarmoq markazlarini xorijiy nashrlar, zamonaviy o'quv, o'quv-metodik va ilmiy adabiyotlar bilan muntazam ta'minlab borish, shuningdek, kurslarning o'quv-uslubiy ta'minotini doimiy yangilab borish chora-tadbirlarini ishlab chiqish va amalga oshirish vazifalari belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 12-iyunda PF-4732-sonli "Oliy ta'lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi Farmoni[4] qabul qilingan. Farmon oliv o'quv yurtlari professor-o'qituvchilarining kasb darajasi va malakasini muttasil oshirib borish, ularni zamonaviy talablarga muvofiq muntazam qayta tayyorlashning

takomillashtirilgan tizimini joriy etish asosida yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash sifatini tubdan oshirish maqsadida o'qitilayotgan fanlar bo'yicha innovatsiyalarni qo'llashi, chet tillarini bilishi, tayanch oliy o'quv yurtlarining vazifalari, idoraviy mansubligidan qat'i nazar, mamlakatimiz oliy ta'lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlari uch yilda kamida bir marta doimiy asosda Tayanch oliy o'quv yurtlarining doimiy faoliyat ko'rsatadigan kurslarida qayta tayyorlashning tegishli yo'nalishlari bo'yicha qayta tayyorlanishi va malakasini oshirishi shart ekanligi, 288 soatlik maxsus dasturlarning 144 soat hajmi ishdan ajralmagan holda mustaqil malaka oshirish usullari asosida, 144 soati to'g'ridan-to'g'ri (bevosita) malaka oshirish shaklida ishdan ajragan holda amalga oshirilishi, kurslar yakunida tinglovchilarning qanday tartibda attestatsiyadan o'tkazish tartibi belgilab qo'yilgan shuningdek, qayta tayyorlovdan o'ta olmasa keyingi jarayonlar qanday tartibda olib borilishi takidlangan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-sonli "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" Qaroriga [5] ko'ra oliy ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor vazifalaridan kelib chiqqan holda, kadrlar tayyorlash mazmunini tubdan qayta ko'rish, xalqaro standartlar darajasiga mos oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash uchun zarur sharoitlar yaratilishini ta'minlash maqsadida: har bir oliy ta'lim muassasasi professor-o'qituvchilarini ilg'or pedagogik texnologiyalar, o'quv dasturlari va o'quv-uslubiy materiallarini keng joriy qilish, o'quv-pedagogik faoliyatga, master-klasslar o'tkazishga, malaka oshirish kurslariga xorijiy hamkor ta'lim muassasalaridan yuqori malakali o'qituvchilar va olimlarni faol jalb qilish, ularning bazasida tizimli asosda respublikamiz oliy ta'lim muassasalari magistrant, yosh o'qituvchi va ilmiy xodimlarining stajirovka o'tashlarini, professor-o'qituvchilarni qayta tayyorlash va malakasini oshirishni tashkil qilish; xorijiy olim, o'qituvchi va mutaxassislar

bilan tuzilgan mehnat shartnomasi doirasida olinadigan daromadlari jismoniy shaxslar daromad soliqlari to'lashdan ozod etilishi kabilar belgilangan.

2003-yil 1-iyulda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Istiqlolli yosh pedagog va ilmiy kadrlar malakasini oshirish va tajriba almashuv tizimini takomillashtirish to'g'risida" PF-3272-sonli Farmoni qabul qilingan lekin, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 30-apreldagi PF-6218-sonli "Milliy qonunchilik bazasini kompleks tizimlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni [6] ga asosan o'z kuchini yo'qotgan.

2017-yil 27-iyulda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasi Prezidentining istiqlolli yosh pedagog va ilmiy kadrlarning malakasini oshirish "iste'dod" jamg'armasi faoliyatini yanada takomillashtirish to'g'risida" PF-5121-sonli Farmoni qabul qilingan lekin, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 11-fevraldagi PF-6168-sonli "Davlat xizmatchilari va mutaxassislarni xorijda tayyorlash hamda ularning salohiyatini yanada oshirish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi [7] Farmoniga asosan o'z kuchini yo'qotgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 11-iyuldagagi "Ma'muriy islohotlar doirasida oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida" 2023-yil 3-iyuldagagi PQ-200-son qarori ijrosini ta'minlash hamda oliy ta'lim tashkilotlari rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash hamda ularning malakasini oshirish tizimini samarali tashkil qilish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Oliy ta'lim tashkilotlari rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida" 415-sonli Qarori [8]

Xulosa qilib aytganda, oliy ta'lim rahbarlari va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish zamonaviy ta'lim tizimining rivoji, talabalarga sifatli bilim berish va jamiyatning taraqqiyotiga yordam berish uchun juda zarurdir. Bu jarayon ta'lim muassasalarining obro'sini oshirish,

raqobatbardoshlikni ta'minlash va yangi avlodni zamonaviy dunyo talablariga mos ravishda tayyorlash imkoniyatini beradi.

Foydalilanilgan adabiyotlar

1. <https://lex.uz/en/docs/-5013007>
2. <https://lex.uz/docs/-4490760>
3. <https://lex.uz/ru/docs/4526545>
4. <https://lex.uz/docs/2676554>
5. <https://lex.uz/docs/-3171590>
6. <https://lex.uz/docs/-5400414>
7. <https://lex.uz/uz/docs/-5286354>
8. <https://www.lex.uz/uz/docs/-7014313>